



INGLIZ TILINI O'QITISHDA ONLAYN PLATFORMALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdixakimova Nargiza

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili mutaxassisligi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Bugungi kunda xorijiy tillarni, shu jumladan, ingliz tilini o'rganishda va o'qitishda ilg'or innovatsion hamda raqamli vositalardan foydalanish dolzarb masala sifatida ko'rilmoqda. Multimedia vositalari, sun'iy intellekt va interaktiv platforma hamda ilovalar til o'rganuvchilar, shu qatorda pedagoglarga ham bir qator keng imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida turli xil onlayn platformalar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi va keng imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ingliz tilini o'qitish, onlayn platformalar, ilg'or innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar, Zoom, BBC Learning English, Duolingo, Moodle.

Annotation. Nowadays, the use of advanced innovative and digital tools in learning and teaching foreign languages, including English, is considered a highly relevant issue. Multimedia tools, artificial intelligence, and interactive platforms and applications provide wide opportunities for both language learners and teachers. This article analyzes the importance, effectiveness, and broad possibilities of using various online platforms and modern technologies in the process of learning English.

Keywords: English language teaching, online platforms, advanced innovative technologies, digital tools, Zoom, BBC Learning English, Duolingo, Moodle.

Аннотация. В настоящее время использование передовых инновационных и цифровых средств в обучении и преподавании иностранных языков, в том числе английского, рассматривается как актуальная задача.



Мультимедийные средства, искусственный интеллект, а также интерактивные платформы и приложения предоставляют широкие возможности как для изучающих язык, так и для педагогов. В данной статье анализируются значение, эффективность и широкие возможности использования различных онлайн-платформ и современных технологий в процессе изучения английского языка.

Ключевые слова: преподавание английского языка, онлайн-платформы, передовые инновационные технологии, цифровые средства, Zoom, BBC Learning English, Duolingo, Moodle.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda har bir sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalana bilish zamon talabiga aylanib bormoqda. Qachonlardir bu hodisa insonlar uchun murakkab jarayon sifatida qaralgan bo'lsa, bugunga kelib bu jarayon ehtiyoj va zaruriyatga aylandi. Shu jumladan, ingliz tilini o'qitishda hamda o'rganishda, samarali, qiziqarli va interaktiv darslarni tashkil etishda onlayn platformalardan va zamonaviy o'qitish tizimidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda..

Ingliz tilini o'rganishda turli xil onlayn platformalarni qo'llash ta'lim sifatini yaxshilash bilan birgalikda o'rganish jarayonini osonlashtiradi hamda qisqa va belgilangan fursat ichida ma'lum bir bilim hamda ko'nikmalarni egallash uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda til o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan onlayn platformalar, ya'ni Zoom, Duolingo, BBC Learning va Moodle platformalarini misol tariqasida ko'rsatadigan bo'lsak, o'quvchilar bir vaqtning o'zida bu programmalar orqali ingliz tilidagi turli xil mahoratlarni turli xil bosqichdan boshlab o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar [1]. Xususan, lug'at boyligini oshirish, kommunikatsion mahoratni o'stirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Jumladan padagoglarga ham darslarni yanada samarali tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, Moodle platformasini qo'llash orqali o'qituvchi



o'quvchilarning yozma,o'qib tushunish hamda eshitish mahoratini o'stirishga yordam bersa,aynan shu jarayonda yuzaga keladigan savollar hamda o'quv faoliyatiga doir bo'lgan masalalarni Zoom platformasi orqali,o'quvchilarga boshqalar bilan muloqot qilish,savollarni birgalikda tahlil qilish,va eng muhimi sof og'zaki nutqni shakllantirish imkoniyati beriladi.Bu kabi audio ya'ni autentik vositalar orqali o'quvchilar tilni real hayotda qo'llay oladi.Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun ta'lim tizimida,shu jumladan til o'rgatish jarayonida ham paradigmani o'zgartirmoqda. U nafaqat bilim yetkazib beruvchi,balki axborotning hammuallifi, maslahatchisi va baxolovchisi hamdir. Bugungi kunda o'quvchilar daftar hamda kitoblarning o'rniga taqdimot va turli visual materiallardan,loyihalardan foydalanishni afzal bilishadi. Bu jarayonda o'qituvchilar til o'rgatish davomida o'quvchilar bilan mustaqil ravishda ishlash,vaqtdan samarali foydalanish ham o'quvchilar bilan individual ravishda ishlash imkoniga ega bo'ladilar.Ilg'or raqamli texnologiyalar bir vaqtning o'zida nazoratni hamda baholash vazifalarini bajarish xususiyatiga egadir [2]. Tilni o'qitish tizimida raqamli materiallardan foydalanish ta'lim sifatini,samaradorligini yaxshilabgina qolmasdan, o'quvchilar hamda talabalar o'rtasida mantiqiy va kereativ fikrlash,jamoaviy va individual ishlash ,o'zaro muloqot va erkin fikr almashish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Chunki ushbu ilg'or texnologiyalar o'quvchi va talabalar bilan birgalikda o'quvchilardan ham yangicha fikrlash,mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni talab qiladi.Chunki raqamli texnologiyalar o'qituvchidan metodikani boyitish,darsni defrensiallashtirish va o'quvchilaning individual ehtiyojiga ko'ra darslarni tashkillashtirishini talab qiladi.

Shu jumladan,zamonaviy texnologiyalar hamda raqamli resurslarning ingliz tilini o'qitish tizimidagi ahamiyati to'g'risida butun jahon olimlari,shu qatorda o'zbekistonlik tadqiqotchi olimlar ham o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borganlar. Bu yo'nalishda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari ustida ishlashgan. Masalan, Ibragimova.M hamda Muhammadiyev.B kabi olimlarimizning chop etgan ilmiy



maqolalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, onlayn platformalar va raqamli resurslar ingliz tilini o'qitish hamda o'rganish jarayoni soddalashtiradi, hamda o'qitish davomida qo'llanilgan onlayn platformalar hamda mobil ilovalar, jumladan vizual hamda video materiallar o'quvchida til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani yanada oshiradi. Ikkinchidan, Muhammadiyev.B o'zining maqolasida ingliz tilini o'qitish metodikasida raqamli platformalardan samarali foydalanish yo'llarini, jumladan, o'quvchilarni til o'rganishga jalb qilish va dars jarayoni interaktiv tashkil etishda texnologiyalardan qanday foydalanish kerakligini hamda foydalanishning til o'rganish va o'qitish jarayonidagi samarasini tahlil qiladi. O'zbek olimlarining ushbu ilmiy tadqiqot ishlari ingliz tilini o'rgatish jarayonida zamonaviy texnologiyalar qanday muhim o'rin tutuvchi jabha ekanligini ko'rsatuvchi bilimlarni yanada boyitadi va ushbu resurslardan foydalanish til o'rganuvchilarga yangicha yondashuvlarni taqdim etadi [3]. Bugungi kunda onlayn resurslardan keng miqyosda foydalanilmoqda. Ularning eng muhim jihati ularning barcha o'quvchilar uchun mavjudligi va turli jihatlarini o'z darajasiga qarab o'rgana olishi sanaladi. Ingliz tilini o'qitishda onlayn platformalar hamda zamonaviy-texnologik vositalardan foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud. Masalan, o'quvchilar istalgan vaqt hamda istalgan joyda ingliz tilini o'rganishlari mumkin. Bu vaqtni tejashga va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan resurslarni tez hamda topish imkoniyati til o'rganuvchilarga elektron kutubxonalardan foydalanish orqali qisqa vaqt ichida istalgan adabiyot, ma'lumot va materiallarni topish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shu bilan birgalikda, global muloqot ya'ni ingliz tilini o'rganish davomida o'quvchilar mobil ilovalar hamda maxsus platformalarda global darajada muloqot qilishi mumkin. Bu orqali o'rganuvchilar og'zaki nutqni qisqa vaqt ichida rivojlantirishi hamda ingliz tilida muloqot qilish darajasini o'stirishi mumkin.

Ingliz tilini, umuman olganda, barcha tillarni o'rganish jarayonida lug'atlardan foydalanish hamda so'zlarni yod olish muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda internetda mavjud bo'lgan ingliz tili



lug'atiga qaratilgan programmalar keng qo'llaniladi [4]. Ularga Wordreference, Oxford Learner's Dictionaries, Cambridge Dictionary, Merriam-Webster Dictionary, Vocabulary.com. kabi ilovalar kiradi. Ushbu onlayn resurslar so'z boyligini oshirish bilan birgalikda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri ifodalashni ham o'rgatadi,shu jumladan,foydalanuvchilarga sodda izohlar,sinonimlar va misollar orqali so'zni esda saqlab qolish va ularning ma'nosini chuqur tushunish imkoniyatini yaratadi.Ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Onlayn shaklda o'tkaziladigan imtihonlarda qatnashish va testlarni ishlash davomida o'quvchilar o'z bilimlarini baholashi,tekshirishi va eng muhimi, xato hamda kamchiliklarini tahlil qilib ularni tuzatishlari mumkin. Misol uchun IELTS,TOFEL hamda Cambridge English kabi xalqaro imtihonlarga tayyorlash uchun mo'ljallangan onlayn platformalar mavjud bo'lib,ular til o'rganuvchilarga til bilish darajasini aniqlashga yordam beradi.Bundan tashqari,YouTube platformasi ham ingliz tili o'rganish hamda o'qitishda juda foydalidir.Ingliz tilidagi darslar, lug'at boyligi hamda grammatikaga oid videolar ,shuningdek, interaktiv darsliklar mavjud [6]. O'quvchilar ingliz tilidaga oid video darslarni ko'rish orqali o'z mahoratlarini oshirishlari mumkin.Shu jumladan,ushbu ilovada,til o'rganuvchilar ingliz tili xalqaro sertifikatlariga oid bo'lgan namunaviy testlarni hamda topshiriqlarni bajarishi bu orqali real imtihondan oldin o'z xatolarini tahlil qilishi va yaxshi natijalarni qo'l kiritish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin hamda tilni kengaytirish bo'yicha ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladilar.Xususan,ingliz tilini o'qitishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish ham samarali yo'llardan biri hisoblanadi.Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar o'quvchilarga tilni qiziqarli va samarali o'rganishni o'yin shaklida taqdim etadi. Masalan,"Minecraft Education Edition" va "Kahoot" kabi o'yinlar bilan o'quvchilar o'yinlarni yanada qiziqarli o'tkizishadi va ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada ortadi. O'qituvchilar uchun mazkur o'yinlarga dars



davomida ingliz tiliga doir bo'lgan grammatik hamda so'z boyligiga asoslangan test topshiriqlarini kiritishlari hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlashlash va baholash imkoniyati tug'iladi. Ushbu raqamli texnologiyalar til o'rganish, umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarga juda ko'p afzalliklarni taklif qilishi bilab birgalikda, ular o'rtasida ba'zi bir qiyinchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, o'qituvchilar orasida ushbu zamonaviy-texnologik resurslardan dars davomida foydalana olmaslik kabi ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin [7]. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar uchun ham maxsus kurslar yo'lga qoyilishi va zamonaviy texnologiyalardan o'qitish jarayonida qanday usullarni qo'llash va raqamli vositalar bilan hamnafas tarzda darslarni qanday tashkil etish usullari o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi innovatsiyalar asrida hech bir sohani, jumladan tibbiyot va iqtisodiyot kabi sohalarni raqamli vositalardan, umuman zamonaviy texnologiyalardan ajrata olmaganimiz kabi ta'lim sohasidan ham, jumladan ingliz tili o'rganish va o'qitish jarayonidan ham ajrata olmaymiz

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, chet tillarini, jumladan, ingliz tilini o'quvchi va talabalarga zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan hamnafas tarzda o'rgatilishi ham o'rganuvchiga ham o'rgatuvchiga maqsadga yanada tezroq yetish imkoniyatini taklif qiladi. Ingliz tili ta'limining yangi pog'onaga chiqishini, samarali, qiziqarli va natijador bo'lishini ta'minlaydi. Chunki ushbu texnologiyalar o'quvchilarga keng imkoniyatlarni ochib beradi va raqobatbardosh muhitga, o'z imkoniyatlaridan to'g'ri va aniq foydalana olishga o'rgatadi. Shu jumladan, onlayn platformalar va zamonaviy-raqamli vositalarni ta'limda qo'llanilishi samarali o'zlashtirishni, yangi bilim va ko'nikmalarni tez va oson egallashni tezlashtiradi, bu esa ingliz tilini o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadaliyeva N. Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli. – Toshkent: TDPU, 2021.



2. Hasanov.I.Raqamli pedagogika asoslari.-Toshkent:Ilm-ziyo ,2020
3. Ibragimova, M. "Ingliz tili o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va raqamli resurslarning ahamiyati." O‘zbekiston ta’limi jurnali, 2(4), 23-30. 2018.
4. Nuriddinova N. Ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi.Conference of Modern Science & Pedagogy, 1-jild, 1-son. – Washington, AQSH. – B. 263–265.
5. Mulaydinov F.M., Abdullayev A.A. "Ta’limda raqamli texnologiyalarning roli." Qo‘qon universiteti xabarnomasi 9 (2023): 237–240.
6. Mulaydinov F.M., Abdullayev A.A., Odilova M.D. Ta’limda raqamli texnologiyalarning roli. Qo‘qon universiteti xabarnomasi. Vol. 9 (2023).
7. Muhammadiyev, B. (2019). "Onlayn resurslar va mobil ilovalar yordamida ingliz tili o‘qitish metodikasi." Pedagogik yondashuvlar jurnali, 1(2), 12-18. 2019.